

SAYID QOSIMIYNING “ILOHIYNOMA” DOSTONINING TAHLILI

Zarifova Parizoda Olim qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti
talabasi*

Rahmonova Zarina

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya: ushbu maqolada Sayid Qosimiy ijodining o'rganilishi, "Ilohiynoma" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, dostonidagi obrazlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sayid Qosimiy, "Ilohiynoma", ayol obrazi, Fariddin Attor "Ilohiynoma", Ka'ba, yigit.

Sharq mumtoz adabiyotida noma janrining paydo bo'lishi uzoq tarixga egadir. "Noma" – forsha "xat", "maktub" ma'nolarini anglatadi. Bu janrda ijod qilgan shoirlarimizdan biri Sayid Qosimiydir. Shoirning tarjimai holi to'g'risida batafsil ma'lumot yo'q. Uning bizgacha to'rtta dostoni yetib kelgan. Ulardan: "Majma ul-axbor", "Gulshani roz", "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" dostonlari bizga ma'lumdir.

Sayid Qosimiy Movarounnahr va Xurosonda temuriylar sulolasidan bo'lgan sulton Abu Said Mirzo hukmdorligi davrida yashab ijod etgan shoirdir.

Shoirning "Ilohiynoma" sining xotima qismidagi va "Majma ul-axbor" dagi ma'lumotlardan shoh va amaldorlar xizmatida bo'lganligi anglashiladi. Keyinchalik no'malum sabablarga ko'ra saroydan chetlashtiradi. Oqibatda shoirning turmushu og'irlashadi. O'sha davrda birgina Sayid Qosimiygina emas balki barcha shoirlarham o'z yurtidan ketib ijod qilishgan.

Sayid Qosimiy har bir dostonini yaratishi bilan turkiy adabiyotda 11-14 asrlarda rivoj topgan didakdik dostonchilik an'analari mahurat bilan davom ettiradi. An'analar deganimizda shoir o'z davrida yaratilgan dostonlar singari o'zining yozgan asarlarini o'xshash qilib yaratgan.

O'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek adabiy tilining dostonlaridan biri bo'lgan Sayid Qosimiyning "Ilohiynoma" dostoni Fariddin Attorning "Ilohiynoma" asariga o'xshashdir. Shoir Fariddin Attorning asarini erkin tarjima qilmagan, balki shu mavzuni u o'zbek tilida yoritishni maqsad qilib quygan. Shu jihati bilan shoir katta

ijodkor ekanidan dalolat beradi. Shoir shunday dostonni yaratdi va o'z davrining nodir asarlar sirasiga kiritdi.

Sayid Qosimiyning "Ilohiynoma"si 411baytni, Fariddin Attorning "Ilohiynoma"sida 305 baytni tashkil etadi. Ikki dostonda ayrim farqlar uchraydi: Fariddin Attorning "Ilohiynoma"sida:eri ukasini xotiniga xizmat qilishni topshiradi.Sayid Qosimiy "Ilohiynoma"sida:ayolning eri Ka'ba ziyoratiga ketayotganida xotinidan xabar olib,uning xizmatida bo'lishni ukasiga tayinlaydi.Dostonlardagi ikki farq mazmun jihatidan o'xshasada lekin boshqa jihati bir –biridan farq qiladi.Mazmun jihatidan ikki dostonda ham erlari ayollariga qarashi,yordam berishi,aytgan narsasisini qilishi haqida so'z aytadi.

Farqi faqat Sayid Qosimiyda ayolning eri Ka'ba safariga ketadi.

Fariddin Attorda:ayol bir xiroj to'plashga qurbi yetmagan va dorga osilishga farmon bo'lgan yigitni qutqarib oladi.Yigit ayolni kemadagi savdigarga sotayotib,bu ayol qaysar,deb uni kamchiligini aytib yuz dinorga sotadi.

Sayid Qosimiyda:bu ayol telba deb ayblab unu uch yuz dinorga sotadi.Ikki farqda esa Fariddin Attorning dostonida ayol dorga osilayotgan yigitni qutqaradi, ammo yigit uni sotib yuboradi.Sayid Qosimiyda yigit ayolni telba ,aql dan ozgan deb aytadi.O'xshash jihatidan yigitnin qutqargan ayolga yaxshilik qilmaydi balki ayolni sotib yuboradi.

Har ikkala dostonning g'oyaviy-badiiy jihati deyarli bir xildir.

Sayid Qosimiy "Ilohiynoma " dostonining qisqacha mazmuni haqida to'xtaladigan bo'lsak.Dostonning boshlanishi:

Bor erdi vaqte bir sohibjamole
Nigore nozanine bemisole
Malohat kishvarida podshoxe,
Ko'zi lashkarkashu husni sipoxe.
Latofat suyindin bo'lmish sirishta,
Kamoli xusnina xayron farishta...
Yuzi yuz ravzayi rizvondin ortiq,
Labi sarchashmayi hayvondin ortiq.

Shoir dostonini boshlanishini pok, vafodor ayol timsoli bilan boshlaydi.Keltirilgan baytlarda shuni ko'ramiz.Ayolni bamisol sohibjamol,nozaninu chiroyli,ko'zini lashkarga,husnini sipohga o'xshatadi.

Ayol obrazi faqat "Ilohiynomada" emas,balki barcha shoirlar o'z asarlarida keltirib o'tganlar.Misol sifatida Qutbning "Xusrav va Shirin "dostonini olishimiz

munmkin.Unda ham ayol ya'ni Shirin obrazining tengi yo'q chiroyi,go'zalligini ta'riflaydi.Yana Shirinning Xusravga bo'lgan sadoqatini keltirib o'tadi.

Yana bir shoir Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonini oladigan bo'lsak.Unda Gulni chiroyini ko'rgan Navro'z hatto hushidan ketadi.

Bu dostonlarda ikki qahramonlar bir-birlariga yetishish uchun ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi.Bu kabi barcha dostonlarning o'xshash jihatlari ko'pdir.Bu dostonlarning asosiy mavzusi faqat sevgan yorining go'zalligi emas ,balki uning sadoqati,mehr-muhabbati,yoriga bo'lgan sevgisi ta'riflanadi.

KO'p mashaqqatlarni boshlaridan o'tkazib ,qiyinchiliklarni yengib, o'z muhabbatiga erishadi.Ayolning eri Ka'ba ziyoratiga o'tlanadi. Safarda ketishida ukasiga,xotinimdan xabar olib turasan,u istagan narsasini muhayyo qil,kelganimdan so'ng senga yuz barobar qilib qaytaraman deydi va ketadi.Ukasi har kuni kelib,yumushlarini qilib,holidan xabar oladi.Ayol olamdagi eng xudojo'y edi,toat -ibodat bilan shug'ullanish uning har doimlik fazilati edi.Ayol doimo yuzini pinhon tutar edi, yigit uning jamolini ko'rmagan.

Bir kuni yigit uning jamolini parda ortidan yuzini ko'rib qoladi va oshiq bo'ladi.Yigitning niyati buziladi va ayolga aytadi. Uning taklifini ayol rad etgach,unga tuhmat qiladi. Shu yerda ayol obrazini eriga bo'lgan sadoqati tasvirlanadi. U o'zini eridan boshqaga yuzini ko'rsatishini hohlamaydi.Qoziga borib ayolni ayblaydi.Qozi ayolni toshbo'ron qilib o'ldirishga buyuradi.Shahar ahli ayolni toshbo'ron qilib o'ldi deb,ovloqjoyga olib borib tashlaydi. Ammo ayolning joni hali tirik edi.Shundan keyin ayol ko'p qiyinchiliklar ko'radi.Arobiyning bu ayolga nisbatan qilmoqchi bo'lgan noma'qul xatti-harakati,uning "siyahro,la in" qulining ayolga qilgan tuhmatlari,keyin a 'robiyning ayolga qilgan himmati va yaxshiligi hikoya qilinadi.(492-bet).

Xiroj to'lay olmagan bir yigitni shoh dorga osayotganda,a'robiy inom qilgan uch yuz dinorni yigitning xiroji uchun berib,uni o'limdan qutqarib qoladi.Bu yigit bir savdogarni uni yuz dinorga sotib yuboradi.Ayolga savdogar va kemadagi xaloyiq ko'p xafa qilganidan Tangriga iltijo qiladi.Tangri ularga ofat keltiradi.Ayol yigit kiyimini kiyib,bir mamlakatga keladi va o'sha mamlakat podshohiga kemadagi barcha mol-mulk evaziga bir ibodatxona qurib berishni so'raydiAyol bu dunyodan vos kechib endi u dunyo uchun toat-ibodat bilan shug'ullanadi.Insonlarning dardiga davo izlaydi. Ularga yordam berishga harakat qiladi..Ayolning maqsadi bu dunyodan kechib u dunyo uchun toat-ibodat qilib barcha mol-mulkdan voz kechish edi.Shoh uning iltimosini bajaradi.Keyin shoh

vafot etadi. O'rniga o'sha "yigitni" podshoh qiladi. Ayol o'zining saxovatligi bilan xaloyiqqa shifo beradi va hamma dardlarini davolaydi. Keyin Ka'ba ziyoratidan qaytib kelgan eri ukasidan yuz bergan voqeani so'raydi. Ukasini ko'zi ojiz bo'ladi. "Shaharda Iso nafasliq" bir kishi borligini aytadi va uning huzuriga olib boradi. Ayol ularni huzuriga kelganini ko'rib taniydi. Aytadi u tuzalmaydi deydi va ukase bor haqiqatni aytib beradi. Shunda kuzi tuzaladi. Ayolning ustidan tuhmat qilib, unga ozor bergan insonlar o'z jazolarini oldilar. Tangri taolo ularni ko'zlarini ko'r qiladilar. Ular davo topish maqsadida o'z ayblarini bo'yniga olib ayoldan kechirim so'raydi. Shunda ularning ayblari yuviladi. Yana shifo topish umidida kelgan a'robiyning quli qari kampirning o'g'li ham o'z gunohlarini ochiq aytadi va ayolning duosi bilan shifo topadi. (494-bet).

Shundan keyin ayol erini bir xonaga olib kirib yuzidagi niqobni ochadi. Eri ko'rib hushidan ketadi. Ayol uni o'ziga keltirib so'raydi. Xoja: "Bir vaqti halolim eding, seni men ul sog'indim" deydi. Shunda ayol mamlakatda hammani boy qilish bilan birga, o'zi qanoatni burch deb biladi.

Bu doston "O'zbek adabiyoti bo'stoni" turkumidagi "Muborak maktub"larda "Sadoqatnoma" nomi bilan deb ham yuritiladi. Doston hazaji musaddasi mahsuf o'lchovida bitilgan.

Asar she'riy shaklda yozilgan. Unda Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar va tasaffuviy fikrlar bilan boyitiladi. Asar chuqur ma'naviy mazmunga ega. Asarda ayol oilaning tayanchi, farzand tarbiyasida asosiy shaxs sifatida ko'riladi. Shoir ayolning pokligi, iffati va diyonatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Yana shu bilan ayol eriga itoatli, mehribon, sadoqatli bo'lishi lozim, erkak esa unga hurmat, adolat bilan muomala qilishi kerakligi ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda doston markazida ayol obrazi talqin qilinadi. Uning vafo va sadoqati barcha ayollarga xos pok timsol tasvirlanadi. Shoir ayol timsolini kuchli o'sha davrda yomon insonlarga qarshi kurashishda sabrli, matonatli, bardoshli qilib tasvirlaydi va boshqa dostonlaridan shu jihati bilan ajralib turadi. "Ilohiynoma" "Sayid Qosimiyning xalq orasida kata e'tibor qozongan asarlaridan bo'lib, u diniy - ma'rifiy merosimizda muhim o'rin egallaydi. Shoir asarida insonni yaxshilik qilishga undaydi. Yaxshi amallar inson bilan birga boradi, ya'ni oxiratda unga yordam bo'ladi. Asarda ayolning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, uning fazilatlar haqida nasihatlar va didaktik fikrlar mavjuddir. Ayolning pokligi, sabri, halolligi orqali jamiyatning ravnaqi ta'minlanadi, deb qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Rahmonov.NO'zbek adabiyoti tarixi; Toshkent-2017-yil.'
- 2.'Muborak maktublar'(182-bet).
- 3.<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214421>.

